



BOJXONA AUDITI NATIJALARI ASOSIDA XAVF MEZONLARI VA PROFILLARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Ziyodov B.A

Bojxona instituti 4-kurs kursanti

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiy salohiyati oshib, eksport va import ko'rsatkichlari ko'tarilib bormoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyat(TIF), uni amalga oshiruvchi tadbirkorlar va ular ustidan nazorat qiluvchi davlat organlarining ahamiyati har doimgiday yuqoridir. Binobarin, hozirda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi va shu bilan birga fiskal faoliyatni samarali olib borayotgan bojxona organlari bunga misol bo'la oladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalarini faol olib borish, TIF subyektlariga o'z faoliyatlarini amalga oshirishda qulayliklar taqdim etishda davlatning islohotlarga asoslangan siyosatini to'liq qo'llab quvvatlagan holda tizimli ishlar olib borilmoqda.

Bunda bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini tashkil etish, bojxona to'lovlarini to'g'ri va to'liq undirish, bojxona to'g'risidagi qonun qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bojxona xizmati organlarini huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida asosiy vazifalari hisoblanadi. Ushbu vazifalarni to'laqonli bajarish maqsadida hozirda tizim miqyosida bojxona tartib taomillarini amalga oshirishni soddalashtirish va xalqaro talablarga asosan uyg'unlashtirish borasida sezilarli o'zgarishlar va yangilanishlar kuzatilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovar va transport vositalarini olib o'tishda bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o'tkazish talab qilinadi. Ushbu jarayonni soddalashtirish maqsadida bojxona organlari tomonidan ilg'or xorijiy tajribalarni o'rgangan holda bojxona auditi va xavfni boshqarish tizimi joriy etilgan.

Bojxona nazorati-O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash uchun bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan, shu jumladan xavfni boshqarish tizimi qo'llanilgan holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidan iboratdir [1].

Bunda bojxona nazorati bu bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan yoki deklaratsiyalanishi lozim bo'lgan tovarlarga va transport vositalariga nisbatan;

taqdim etilishi bojxona deklaratsiyasiga, tovarlar to'g'risidagi hujjatlarga va ma'lumotlarga nisbatan;

yuridik va jismoniy shaxslarning tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tish, bojxona ishi sohasida xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq, shuningdek ayrim bojxona rejimlari doirasida amalga oshiriladigan faoliyatiga nisbatan o'tkaziladi

Bojxona sohasida bojxona auditi esa tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazorati hisoblanib tovarlar chiqarib yuborilganidan keyin bojxona organlari, agar bojxona to'g'risidagi qonunchilik buzilishlari mavjud deb taxmin qilish uchun

yetarli va tasdiqlangan asoslar mavjud bo'lsa, bojxona nazoratini amalga oshirishga, shu jumladan bojxona auditi usullari asosida amalga oshirishga haqlidir.

Bojxona kodeksining 4-bo'lim 27-bobning 201-moddasiga ko'ra tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazorati amalga oshirilayotganda bojxona organlari tovarlarning borligini tekshirishga, ularni qayta bojxona ko'rigidan o'tkazishga, bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarni qayta tekshirishga, hujjatlarni hamda ushbu tovarlar bilan amalga oshiriladigan tashqi iqtisodiy operatsiyalarga va undan keyingi tijorat operatsiyalariga taalluqli axborotni tekshirishga haqli. Tekshiruv mazkur operatsiyalarga bevosita yoki bilvosita aloqador yoxud zarur hujjatlarga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar joylashgan yerlarda o'tkazilishi mumkin.

Tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazoratini o'tkazish uchun bojxona organi boshlig'ining yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning tekshiruv maqsadi, uni o'tkazish muddatlari, tekshiruvchi bojxona organi mansabdor shaxslarining tarkibi va tekshirilayotgan davr ko'rsatilgan qarori asos bo'ladi.

Dunyo mamlakatlari bojxona tizimiga beriladigan baho quyidagi 3 ta asosiy mezon orqali baholanadi:

- ✓ xalqaro standartlarga javob beradigan Bojxona kodeksining mavjudligi;
- ✓ uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyaning qabul qilinganligi;
- ✓ xavfni boshqarish tizimining mavjudligi.

Ma'lumki 2018 yil dekabr oyigacha O'zbekiston bojxona tizimida xavfni minimallashtirish tizimining bo'lmaganligi, bojxona ma'murchiligining xalqaro darajadagi mavqeyini pasayishiga olib kelgan. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari faoliyatiga baho berishda xavfni minimallashtirish tizimining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bojxona organlari faoliyatida xavfni boshqarish tizimi (bundan buyon matnda - XBT deb yuritiladi) alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham xavfni boshqarish tizimi dunyo tajribasida bojxona nazoratining asosiy falsafasi sifatida e'tirof etiladi. Risk bilan bog'liq jarayonlarni o'rganuvchi riskologiya fani XXI asrda paydo bo'ldi. Ushbu fanning zamonaviy rivojlanish bosqichi fundamental ilmiy bazaning yaratilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Riskologiya paydo bo'lishi – ishlab chiqarishda ham, kundalik hayotda ham riskni tahlil qilish, baholash, prognozlash, dasturlash va rejalashtirishga bo'lgan katta ehtiyoj bilan bog'liq [2].

Xavfni boshqarish tizimining qo'llanilish maqsadi quyidagilardan iborat:

Bojxona organlarining vakolatlari doirasida davlat xavfsizligini, insonning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ta'minlash;

Yuqori xavfga ega bo'lgan sohalarga e'tiborni jamlash va bojxona organlari tasarrufidagi mavjud resurslardan samarali foydalanilishini ta'minlash;

Tovarlar bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotganda bojxona operatsiyalarining o'tkazilishini tezlashtirish;

Xavf profillari va ularni aniqlash hamda qo'llash muddatlari, mezonlari O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Xavf profili — xavf sohasi, xavf indikatorlari to'g'risidagi ma'lumotlar yig'indisi, shuningdek xavfning oldini olish yoki uni imkon qadar kamaytirish

bo'yicha zarur choralarni ko'rish to'g'risidagi ko'rsatmalar hisoblanib bojxona auditi natijalari xavf mezonlari va profillarini takomillashtirishda ununumli foydalanadi [3].

Xavf profillaridan bojxona nazorati o'tkazilayotganda bojxona nazorati shakllarini qo'llash uchun bojxona organlari tomonidan foydalaniladi va ular tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tishni cheklash uchun asos bo'la olmaydi.

Eng kam yoki eng ko'p xavf toifasiga kiritish, shuningdek bojxona tartib-taomillari ayrim turlarining hamda bojxona nazorati ayrim shakllarining qo'llanilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan manfaatdor davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda belgilanadi[4].

Xavfning belgilangan profillari va indikatorlari tarkibi bojxona organlari tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan va boshqa shaxslarga oshkor etilishi mumkin emas, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno.

Mazkur tizim tadbirkorga quyidagi afazalliklarni beradi:

- Eng avvalo, ushbu tizim tashqi savdo aylanmasining oshishiga va xalqaro savdoning rivojlanishiga xizmat qiladi;
- Tashqi iqtisodiy faoliyatning (TIF) halol ishtirokchilarini rag'batlantirish hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish imkonini beradi;
- Bojxona nazorati va rasmiylashtiruviga sarflanadigan vaqt sezilarli ravishda qisqaradi;
- Harbir TIF qatnashchisiga individual baho berish va ularning halolligiga qarab saralash, bir-biridan farqlash imkoni tug'iladi;
- TIF qatnashchilariga bojxona ko'rigidan yengillik yaratiladi;
- TIF qatnashchilarining tovarlari aylanmasi davri qisqaradi.

Endilikda tadbirkorlar Davlat bojxona qo'mitasining bojxona.uz saytidagi havola orqali bojxona yuk deklaratsiyasining maqomi hamda uning qaysi yo'lakka joylashtirilganligi to'g'risida ma'lumotlarni real vaqt rejimida olishlari mumkin.

Bojxona auditi natijalari asosida xavfni boshqarish tizimidan foydalanish mazkur tizim bojxona organlariga ham quyidagi afazalliklarni beradi:

- Tovar va transport vositalarini, bojxona nazoratidan o'tkazishda Xavfni boshqarish tizimi bojxona nazoratining qo'llaniladigan shakli va darajasini belgilab beradi. Tovarlar bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotganda bojxona operatsiyalarining o'tkazilishini tezlashtirish bilan bir qatorda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishlarini aniqlash, prognoz qilish va ularning oldini olishda muhim rol o'ynaydi [4].
- Ma'lumki, bojxona organlariga taqdim qilinadigan barcha ma'lumotlarni tekshirish va ularning ishonchligini ta'minlashning imkoniyati yo'q. Shuning uchun xavfni boshqarish tizmi esa bojxona organlarining cheklangan resurslaridan eng katta samaradorlik asosida foydalanish imkonini beradi.
- Bunda asosiy e'tiborni yuqori stavkali, doimiy xarakterdagi bojxona qonunchiligining buzilishi yoki mahalliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlariga putur yetkazadigan yoxud davlatning boshqa manfaatlariga tahdid soladigan, himoya qilish bojxona organlari zimmasiga yuklangan eng xavfli holatlarga va yetkazib berish jarayonlariga qaratishga katta e'tibor beriladi.

Aksincha, xavf-xatarlar bo'lmasa yoki uning ehtimoliy qonun buzilishlarining oqibatlari minimal darajada bo'lsa, bojxona rasmiylashtiruvining eng sodda

texnologiyalarini qo'llaniladi va transport vositalarining kutib qolishi, yuklarni tashish, ularni bojxona terminallarida saqlash bilan bog'liq asossiz xarajatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflarni bildirib o'tamiz:

1. Bojxona auditi o'tkazilganligi natijalari xulosalariga ko'ra, xavfni boshqarish tizimida TIF subyektlarini yashil, sariq va qizil yo'laklarga ajratishdir.


Bunda yo'laklarga ajratish quyidagi mezonlarga asoslanishi lozim:

Yashil yo'lak - korxonaning bojxona organlari bilan hamkorlik olib borayotgan faoliyatida sohaga doir barcha qonun hujjatlariga mos kelishi, bojxona qonun buzilishi holatlarining amalga oshirilmaganligi.

Agar korxona bilan faqat ish hujjatlar(buxgalterlik hisoboti, shartnomalar, import, eksportga tegishli tovarning kuzatuv hujjatlari)da muammo yuzaga kelayotgan bo'lsa uni sariq yo'lakka ajratish lozim. Bunda hujjatlardagi muammolar(xatoliklar: qalbakilashtirish, o'zgartirishlar, nomuvofiqliklar) bartaraf etiladi.

Agar korxonalar hujjatlaridagi ma'lumotlar bilan tovar to'g'risidagi ma'lumotlar aynan bir marta ham mos kelmasa qizil yo'lakka o'tkazish kerak. Chunki ushbu korxona bilan huddi shu kabi tovarlarda takroran bir xil kamchilik yuzaga kelish xavfi mavjud.

Bojxona organlarida amaliyotda mavjud bo'lgan "xavfni boshqarish" tizimi kabi muayyan davr oralig'ida TIF qatnashchilarining faoliyatini tanlab olish usulida(random) bojxona auditi o'tkazish amaliyotini joriy etish lozim. Bunda:



Yashil yo‘lak har 3(uch) oyda 1 marotaba;
Sariq yo‘lak har 2(ikki) oyda 1 marotaba
Qizil yo‘lak har 1(bir) oyda 1 marotaba ****

Natijada ushbu audit xulosalariga ko‘ra, ijobiy(qizil yo‘lak - sariq yoki yashil yo‘lak) yoki salbiy(yashil yo‘lak - sariq yoki qizil yo‘lak) tomonga o‘tkaziladi.

1-rasm. Bojxona organlarida “xavfni boshqarish” tizimi

Bojxona xizmati organlari bilan faoliyat yuritadigan korxonalarga imtiyoz berishdir. Bunda TIF subyektlari va tadbirkorlar hamda mahalliy aholi halol tadbirkorlardan mahsulot olish tarafdoridir. Bunda bojxona auditini bilan korxonalar o‘rtasida amalga oshiriladigan operatsiyalar axborot vositalarida namoyish etilib turishi lozim. Shunda korxonalar o‘zlarining mavqeyini tushirmaslik uchun TIF faoliyatini samarali olib boradi hamda aholini sifatli mahsulot bilan ta‘minlaydi.

Xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda har bir korxonalarning ichki va tashqi auditni tubdan takomillashitirib (ularga asoslangan axborot dasturlari ishlab chiqilib) bojxona organlarining dasturlari bilan integratsiya qilish. Ushbu dastur kameral bojxona auditini yanada soddalashtirishga imkoniyat beradi. Shuningdek, bojxona organlari xodimlari masofadan turgan holda tashqi savdo balansi(tovarlarining bozordagi narxi, aholining tovarga nisbatan talabi, mavsumiyligi)ga qarab qaysi tovarlarga nisbatan imtiyoz berilishini ham nazorat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi bojxona kodeksi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, yangi tahrir, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)
2. M.Xamrayev, X.Ro‘zmetov, A.Nazarov. Xavfni boshqarish tizimi: Darslik. -Toshkent: BI, 2021 y. – 263 bet.
3. A.Nazarov, S.Alimjanov. Xavfni boshqarish tizimining bojxona nazoratini ta‘minlashdagi ahamiyati, maqola.
4. Internet ma’lumotlari: <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/bojxonada-xavfni-boshqarish-tizimi>.